


Axborotni taqdim etish

Axborotni turli yo'llar bilan uzatish mumkin. Uni qog'ozga yozish, ovoz chiqarib aytish, rasm yoki surat ko'rinishida taqdim etish mumkin.



Axborotning simvol ko'rinishida taqdim etilishi.

Ob-havo haqidagi ma'lumotni qanday taqdim etish mumkinligini ko'rib chiqing.



Axborotning tovush ko'rinishida taqdim etilishi.



Axborotning grafik ko'rinishida taqdim etilishi.




**Axborotni taqdim etish uni
biror-bir tarzda yozib olishdir.**



1. Do'stingiz yoki dugonangizga u sizning eng yaxshi do'stingiz yoki dugonangiz ekanligini va siz uni qadrlashingizni qanday yo'llar bilan ko'rsata olishingiz haqida o'ylab ko'ring.

Rahmat,
yaxshiyam
sen borsan!
Sen - eng
yaxshi
dostimsan!



2. Aynan bir axborotni qanday usullar bilan taqdim etish mumkin?



3. Savollarga javob bering.

- Telefon orqali gaplashish axborot taqdim etishning qanday turiga kiradi?
- Informatika va axborot texnologiyalari fanidan a'lo baho olganingizni onangizga qanday usullar bilan ma'lum qilishingiz mumkin?

